

RUS TILIDA IQTISODIYOT SOHASIDAGI TERMINLARNI O’QITISH
METODIKASINING SAMARADORLIGI VA TAHLILI

Usmonova Umidaxon Ilxomjon qizi,

Guliston davlat universiteti “Rus tili va adabiyot” kafedrası o’qtuvchisi,

E-mail: usmonovaumidaxon47@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21218820>

Аннотация: В данной статье анализируются инновационные методики обучения экономической терминологии на русском языке для студентов бакалавриата направления «Экономика» в системе высшего образования. В исследовании проводится сравнение традиционных и инновационных методов обучения, демонстрируется положительное влияние компьютерных технологий, видеоконференций, социальных сетей и дискуссионных форумов на эффективность учебного процесса. Опытно-экспериментальная работа проводилась на основе контрольной и экспериментальной групп: в контрольной группе применялись традиционные методы, в экспериментальной — электронные учебные пособия и мультимедийные средства. Результаты показали, что инновационный подход значительно повышает лингвистическую компетентность студентов и развивает навыки самостоятельного освоения экономических терминов. В заключении статьи разработаны практические рекомендации для преподавателей русского языка по развитию терминологической компетенции: выявление профессиональных потребностей студентов, составление лексического минимума, использование аутентичных текстов в рамках коммуникативного подхода и систематическое повышение квалификации.

Ключевые слова: инновационные подходы, экономическая терминология, русский язык, педагогические технологии, лингвистическая компетентность, электронное учебное пособие, опытнo-экспериментальная работа

Abstract: This article analyzes innovative methodologies for teaching economic terminology in the Russian language to undergraduate students of the Economics program within the higher education system. The study compares traditional and innovative teaching approaches, demonstrating the positive impact of computer technologies, video conferencing, social media, and discussion forums on the effectiveness of the educational process. The experimental research was conducted on the basis of control and experimental groups: the control group used traditional teaching methods, while the experimental group employed electronic textbooks and multimedia tools. The results showed that the innovative approach significantly enhances students’ linguistic competence and develops their skills for independently mastering economic terminology. The article concludes with practical recommendations for Russian language teachers on developing terminological competence: identifying students’ professional needs, compiling vocabulary minimums, using authentic texts within a communicative approach, and systematically improving professional qualifications.

Keywords: innovative approaches, economic terminology, Russian language, pedagogical technologies, linguistic competence, electronic textbook, experimental research

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida “Iqtisodiyot” yo’nalishi bakalavriat talabalari uchun rus tilidagi iqtisodiy terminologiyani o’qitishning innovatsion metodikalari tahlil qilingan. Tadqiqotda an’anaviy va innovatsion o’qitish usullari qiyosiy tahlil qilinib, kompyuter texnologiyalari, videokonferensiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va

munozara forumlarining ta’lim jarayoni samaradorligiga ijobiy ta’siri ko’rsatib berilgan. Tajriba-sinov ishlari nazorat va tajriba guruhlarida asosida olib borildi: nazorat guruhida an’anaviy metodlar, tajriba guruhida esa elektron o’quv qo’llanmalar va multimedia vositalari qo’llanildi. Natijalar innovatsion yondashuv talabalarining lingvistik kompetentligini sezilarli darajada oshirishi hamda iqtisodiy terminlarni mustaqil o’zlashtirish ko’nikmalarini rivojlantirishini ko’rsatdi. Maqola yakunida rus tili o’qituvchilari uchun terminologik kompetensiyani rivojlantirish bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo’lib, ular talabalarining kasbiy ehtiyojlarini aniqlash, leksik minimumni tuzish, kommunikativ yondashuv doirasida autentik matnlardan foydalanish va pedagoglarning malakasini muntazam oshirib borishni o’z ichiga oladi.

Kalit so’zlar: innovatsion yondashuvlar, iqtisodiy terminologiya, rus tili, pedagogik texnologiyalar, lingvistik kompetentlik, elektron o’quv qo’llanma, tajriba-sinov ishlari.

KIRISH. Oliy ta’lim tizimida amaldagi axborotlashgan ta’lim muhitining alohida axborot tizim, ma’lumotlar banklari, pedagog va talabalarining veb-saytlari, axborot resurs markazlari, elektron axborot-ta’lim resurslari, innovatsion laboratoriyalar, media va videodarslar, elektron hujjatlar almashinuv tizimi, videokonferensiya aloqalari, internet tarmog’idagi on-line tanlovlar tizimidagi barcha ishtirokchilarni faol foydalanuvchilarga aylanishiga, innovatsion texnologiyalarini o’quv-tarbiya jarayoniga keng joriy etilishiga xizmat qiladi.

METODOLGIYA. Iqtisodiyot bakalavr ta’lim yo’nalishi talabalarida innovatsion yondashuvlar yordamida rus tilda iqtisodiyot sohasidagi terminlarni talabalarga o’rgatishning amaliyotga keng tatbiq etish AKT mutaxassisi va rus tili fanidan o’quv mashg’ulotlari olib boruvchi pedagoglar o’rtasida o’zaro ijodiy hamkorlikning o’rnatilishi hisobiga ta’minlanadi. Ushbu hamkorlikni ta’minlovchi vosita esa innovatsion yondashuvlar va iqtisodiyot sohasidagi terminlarning mohiyati, tamoyillari, amaliyotga tatbiq etilish shartlari, bosqichlari va hokazo jihatlari borasida to’laqonli ma’lumot bera oluvchi manbalar bo’lishi kerak.

Oliy ta’limda rus tili darslarida innovatsion yondashuvlarni qo’llagan holda rus tilda iqtisodiyot sohasidagi terminlarni talabalarga o’rgatish mazmuniga qaratilgan ta’limni tashkil etishning mavjud holatini o’rganish natijasida ma’lum bo’ldiki, aksariyat rus tili fani mutaxassislarida pedagogik texnologiyalar, ularning mohiyati va amaliyotda qo’llash borasidagi nazariy bilim hamda amaliy ko’nikma, malakalarning shakllanmaganligi innovatsion ta’lim samaradorligini ta’minlashga imkon bermaydi. Ushbu holatga yordam berish o’z navbatida rus tili fani mutaxassislari o’rtasida pedagogik texnologiya nazariyasi va uning asoslari xususidagi bilimlarning targ’ib etilishi, shuningdek, ularga ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarning tatbiq etilishi yuzasidan metodik yordamning ko’rsatilishi hozirgi zamonning muhim talablaridan biri sanaladi.

Rus tili fanining amaliy mashg’ulotlari bo’yicha yaratilgan o’quv uslubiy qo’llanma va elektron o’quv qo’llanma asosida Iqtisodiyot bakalavr ta’lim yo’nalishi talabalarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishda videokonferensiya, ijtimoiy tarmoq va diskussion forumlar kabi vositalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga imkon beradi. Kompyuter texnologiyalari yordamida rus tilda iqtisodiyot sohasidagi terminlarni talabalarga o’rgatishda bir qator lingvistik mavzular tilning aspektlari ketma-ketligini (Phonetic – Lexicology – Grammar) o’rganish lozim. Bu metodikada ushbu jarayon kompyuter texnologiyalari yordamida ko’rsatilib, tushuntirilib boriladi va shu tarzda o’qitishni



ko'rgazmalilik prinsipiga tayangan holda talabalarda ongli ravishda amaliy jihatdan materiallarini o'zlashtirishi ta'minlanadi. Natijada talabalarda ushbu mashg'ulotni mazmunini tushunishga va bu tushuncha ko'nikmaga aylana borishiga zamin yaratiladi. Talabalarning ushbu mashg'ulot bo'yicha kompyuterda mustaqil shug'ullanishi ulardagi ko'nikmalarini malaka darajasiga yetkazishga imkon beradi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR. 1-misol: Bu mashg'ulot bo'yicha an'anaviy metodikada mutaxassislar o'quv materialini bayon etuvchi ko'rgazmali qurollar va plakatlar yordamida tushuntiradi. Biz ishlab chiqqan uslubiy qo'llanma asosida dars o'tish metodikasida, amaliy mashg'ulotlarni kompyuter texnologiyalari yordamida namoyish etish, rus tildagi lingvistik til sathlariga oid mavzularini innovatsion reallik asosida On-line kurs multimediali vositalardan foydalangan holda mashg'ulotlar olib borish imkoniyatini ham beradi. Bu esa mutaxassislarga qisqa vaqtda keng qamrovli tinglovchilar auditoriyasini jalb qilish imkoniyatini beradi.

Innovatsion yondashuvlar yordamida mutaxassislar videokonferensiya, ijtimoiy tarmoq va diskussion forumlar kabi vositalardan foydalangan holda ta'lim samaradorligini oshirishi an'anaviy o'qitish usullarida esa amaliy mashg'ulotlarni dars uchun ajratilgan vaqt oraliqida bir guruh talabalar bilan o'zaro faol hamkorlikda ishlashi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, kompyuter texnologiyalari yordamida rus tilda iqtisodiyot sohasidagi terminlarni talabalarga o'rgatishda bir qator lingvistik mavzular tilning aspektlari ketma-ketligini (Phonetic – Lexicology – Grammar) o'rganish lozim. Metodikada ushbu jarayon kompyuter texnologiyalari yordamida ko'rsatilib, tushuntirilib boriladi va shu tarzda o'qitishni ko'rgazmalilik prinsipiga tayangan holda talabalarda ongli ravishda amaliy jihatdan materiallarini o'zlashtirishi ta'minlanadi. Natijada talabalarda ushbu mashg'ulotning mazmunini tushunishga va bu tushuncha ko'nikmaga aylana borishiga mustahkam zamin yaratiladi. Talabalarning ushbu mashg'ulot bo'yicha kompyuterda mustaqil shug'ullanishi ulardagi ko'nikmalarini malaka darajasiga yetkazishga imkon tug'diradi. Shuningdek, rus tili fanining amaliy mashg'ulotlarini LMS ta'limni boshqarish tizimi orqali iqtisodiyot sohasidagi terminlarga oid onlayn kurslarni boshqarish yordamida ta'lim berish shakli mazmunini oson o'zlashtirishga va amaliy mashg'ulotlarda talabalarni mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Tajriba sinov ishlarini tashkil qilishda qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda talabalarning bilim darajasini ularning kelajakdagi faoliyatini e'tiborga olgan holda aniqlash vazifasi qo'yilgan edi.

Tajriba sinov ishini maqsadi elektron o'quv qo'llanmani pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoni amaliyotga joriy etish yo'llarini aniqlash va ularning samaradorligini baholashdan iborat. Shu o'rinda asoslovchi va ta'kidlovchi tajriba sinov ishi jarayonida nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining innovatsion yondashuvlar yordamida rus tilda iqtisodiyot sohasidagi terminlarni o'rgatishga oid bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajasini aniqlashga qaratildi.

Tajriba va nazorat guruhlarida ta'lim jarayonining farqi shundan iboratki, nazorat guruhida talabalar bilan mashg'ulotlar an'anaviy metodlar yordamida olib borildi, tajriba guruhida esa tadqiqotchi tomonidan taklif qilingan kompyuter uchun tayyorlangan muloqotli dasturlar vositasida ta'lim berildi. Uning mazmuni bugungi kunda tobora ommalashib borayotgan va ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinayotgan elektron o'quv qo'llanmaning ta'lim jarayoni amaliyotga joriy etish yo'llarini aniqlash hamda ta'lim amaliyotida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim

pedagogik zaruriyat ekanligini talabalar ongiga singdirishdan iborat. Tadqiqot davrida ilg’or pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlariga tayangan holda talabalarda iqtisodiyot sohasidagi terminlarning amaliy ko’nikma va malakalarni boyitish, shuningdek, ularda lingvistik kompetentlikni shakllantirishga imkon beruvchi topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi.

Ta’lim-tarbiya, shuningdek, bo’lajak mutaxassislarni, ya’ni «Iqtisodiyot» bakalavr ta’lim yo’nalishi talabalarining rus tilda iqtisodiyot sohasidagi terminlarni o’rgatishda zamonaviy o’quv vositalari yordamida raqobatbardosh qilib tayyorlashdek tomonlarini e’tiborga olgan holda, uning mazmuni va mohiyatiga hamda ularning o’zaro aloqadorligini tadqiq etish uchun muammo yechimini topishga «Tizimli yondashuv» tadqiqot usuli qo’llanildi. Tajriba-sinov ishlarini olib borish, ularning samaradorligini baholashni e’tiborga olgan holda, tajriba-sinov ishlarida qatnashayotgan respondent-talabalar nazorat va tajriba guruhlariga bo’lindi. Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining natijalari muntazam ravishda tahlil etib borildi va ularni o’zaro taqqoslab, tegishli xulosalar chiqarildi, hamda lozim topilganda ayrim tuzatishlar qilindi.

Talabalarining bilim hamda kasbiy faoliyatga bo’lgan moyilliklari darajasi amaliy muammolarni mustaqil holda ijodiy yechimini topishlarida, o’rganilayotgan manba (mavzu, fan, jarayon, hodisa)ning ahamiyatini ilmiy anglab, maqbul ravishda talabalar intellektual mulkiga aylantirishi orqali aniqlanadi. Talabalarda shakllangan bilim, ko’nikma va malakalarni baholashda ongli o’zgartirish, bilimlarni davlat ta’lim standartlari doirasida tizimlilikini va ulardan ijodiy foydalanish qobiliyati kabi mezon sifatida foydalanildi. Buning uchun dastlabki va so’nggi sinov natijalaridan foydalanildi. Rus tili fanida talabalarda iqtisodiyot sohasidagi terminlarni shakllanishida innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish ijobiy natijalarga erishishni kafolatlash bilan birga talabalarda quyidagi malakalarni shakllantirdi:

- mazkur texnologiya an’anaviy o’qitish texnologiyasidan keskin farq qilib, uning yordamida o’rganilayotgan mavzu bo’yicha ko’proq, chuqur, batafsil ma’lumotga ega bo’lishi mumkin, zero, mazkur texnologiya tez, aniq, qiziqarli va yakuniy natijaga (bosqichga) optimal erishishini kafolatlaydi;

- ishlab chiqilgan kompyuter animasion dasturi universal didaktik vosita bo’lib, undan foydalangan holda o’qitishni boshqarish algoritmini amalga oshirish mumkinligini ta’minlaydi. Shunday qilib, «Iqtisodiyot» bakalavr ta’lim yo’nalishi talabalarining lingvistik kompetentligini shakllantirish bo’yicha amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari samarali tashkil etildi.

XULOSA. Xulosa sifatida aytish mumkinki, umumkasbiy fanlar bo’yicha multimedia texnologiyalari asosida o’qitishning ilmiy-metodik ta’minotini ishlab chiqish hamda ularning o’qitish jadalligini oshiruvchi va yangi imkoniyatlarga boy dasturiy ta’minotlarni joriy etish; ta’lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalar, o’qitishning innovatsion yondashuvlari joriy etib borilayotgan sharoitda multimedia texnologiyalar asosida o’qitishning dasturiy ta’minotini jamiyatning zamonaviy ta’lim talablariga, ehtiyojlariga muvofiq takomillashtirildi. Terminologik kompetensiyani rivojlantirish bo’yicha rus tili o’qituvchilariga tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

- rus tili o’qituvchilari talabalarining kelgusi kasbiy ehtiyojlarini, ularning qiziqishlarini, aniqlashi va aniqlangan ma’lumotlar mashg’ulotlar mazmuniga singdirishi lozim;

- kasbga oid terminlarni o’rgatishdan oldin ularni umumiste’moldagi lug’at sirasidan ajratib olish va zaruriy lug’at minimumini tuzib chiqishi kerak;



- kommunikativ yondashuv doirasida o’quv materiallari zaruriy kasbga oid terminlar bilan boyitilgan didaktik va autentik matnlardan foydalanish zarur;
- rus tili o’qituvchilari mazkur sohaga oid yangi ma’lumotlar bilan muntazam ravishda o’z malakasini oshirib borishi darkor.

ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning Oliy Majlisga murojaatnomasi. // «Xalq so’zi» gazetasi. 2020-yil, 25-yanvar, 19 (7521)-son.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarda mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida»gi PF-60-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.01.2022 y.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekiston Respublikasida rus tillarini o’rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ-5117-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.05.2021 y.
4. Abdullayeva Sh.N. G’aznachilik sohasida qo’llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy terminlarning o’rgatilayotgan tadqiqi (rus, o’zbek va rus tillari misolida): Filol. fanlari. b. falsafa. d-ri (PhD). ... diss. avtoref. – T., 2018. – 26 b.
5. Ахмедова Н.М. Интегратив ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларни касбий тайёргарлигини такомиллаштириш: Пед. фанл. ... фалс. д-ри. PhD. – Т., 2020.